

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

(ingliz va koreys tili misolida)

K.I.Marayimova

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

Yu.G'.Ergasheva

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillar: ingliz va koreys tillarini o'qitish uchun samarali hisoblangan bir qancha zamonaviy metodikalar va ulardan foydalanish texnikalari haqida so'z boradi. Mazkur maqoladan keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish o'qituvchilarga darslarni yanada sifatli va qiziqarli tashkil etishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: metodlar, ingliz, koreys tili, innovatsion texnologiyalar, chet tili, mashg'ulotlar, hamkorlikda ishlash, individual, interfaol, madaniyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые современные методы и приемы их использования, которые считаются эффективными при обучении иностранным языкам: английскому и корейскому. Использование информации, представленной в этой статье, поможет учителям более качественно и интересно организовать занятия.

Ключевые слова: методы, английский язык, корейский язык, инновационные технологии, иностранный язык, обучение, сотрудничество, личность, интерактив, культура.

Abstract: This article discusses some modern methods and techniques of their use that are considered effective for teaching foreign languages: English and Korean. Using the information provided in this article will help teachers to organize classes more qualitatively and interestingly.

Key words: methods, English, Korean language, innovative technologies, foreign language, training, cooperation, individual, interactive, culture.

Rivojlanib kelayotgan bugungi zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Hamda ta'limning har bir sohasida odim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, ilm-fanda ko'plab yutuqlar, yangiliklar yaratilib uni amalda qo'llab kelinmoqda. Hozirgi kunda qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazish ta'limning eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan xorijiy tillarni o'rganishga keng yo'l va imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori shular jumlasidandir.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan iste'dodli yoshlar va malakali o'qituvchilarni xorijiy davlatlarda tahsil olish hamda ularning malakasini oshirish borasida ko'plab tanlov va fondlar tashkil etilmoqda. "El-yurt umidi" (mutaxassislarni xorijda tayyorlash) va "Iste'dod" (yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish) jamg'armalari, "Ibrat tillari" (18-25 yoshdagi yoshlarning til ko'nikmalarini rivojlantirish) oromgohi bunga misol bo'la oladi.

Joriy yil statistika ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim tizimi va sifati bo'yicha avvalo Amerika Qo'shma Shtatlari, Hitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya kabilar ilg'or davlatlar hisoblanib, tabiiyki, bu davlatlar tillarini o'rganish O'zbekiston ta'lim taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadi. Bu jarayonning tubida esa ta'lim muassasalarida tillarni o'rganish va o'rgatishdagi samarali uslub va metodikalarni qo'llash yotadi. Xo'sh, xorijiy tillarni o'rganishdagi samarali uslublar qanday va ularni ta'limda qanday qo'llash mumkin?

Xorijiy tillarni o'qitishda eng samarali usullardan biri bu "Interfaol" usul hisoblanadi. Dars mashg'ulotlarida turli hil guruhlarda, hamkorlikda ishlash va birgalikda harakat orqali o'quvchi yoki talaba o'tilayotgan mavzuni yaxshi o'zlashtira oladi. Xususan, o'qituvchi darsda mavzuga mos tarzda topshiriq berishi mumkin - birgalikda guruh gazetasini yaratish, pitsa yoki salat tayyorlash, gul ekish yoki mini bog' yaratish kabi topshiriqlar shular jumlasidandir. Bunday faoliyat

orqali o'quvchi real hayotda sodir bo'lishi mumkin vaziyatlarga o'zida ko'nikma hosil qiladi va uni amalda qo'llay oladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda til ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Teatrlashtirish yoki dramatisatsiya. Ingliz tilida sahna ko'rinishlari orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish ingliz tili fani o'qituvchilarining sevimli usullaridan biridir va ko'plab o'quvchilarining ham eng yoqtirgan mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi. Bolalar, ayniqsa, jasur shahzodalar va malikalar, yovuz jodugarlar va mehribon parilar, sehrli mavjudotlar va gapiradigan hayvonlar dunyosini ertaklarda va multfilimlarda ko'rishni yoqtirishadi. Bolalar syujetga tezda kirisha olishadi va voqealarni, sevimli qahramonlarni va ularning jozibali iboralarini osongina eslab qoladi.[2]

Dastlab o'qituvchi ertakni o'qib, uni o'quvchilar bilan muhokama qilishi lozim. So'ng o'quvchilar rasmlarga qarab ertakni tomosha qilishadi. Muhim so'zlarni o'rganishadi va keyinroq ertakni hikoya qilishadi. Har bir bola ertak qahramonlarini, rang-barang bezaklarni va ertaklarni tomosha qilishni yaxshi ko'radi. O'yinga tayyorgarlik o'quvchilarni ingliz tilida so'zlashadigan muhitga va tildan tabiiyroq foydalanishga o'rgatadi. Bunday metod orqali ingliz tilini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tez, oson va qiziqarli o'rgatish mumkin.

Tabiiy yondashuv. Bunday yondashuv bilan talabalar odatda chet tilida yozishni o'rganishdan oldin gapirishni o'rganadilar. Tabiiy yondashuv maqsadli tilda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan o'zaro ta'sirlarga qaratilgan. Bu sinf muhitida real hayot sharoitlarini simulyatsiya qilishni yoki chet elliklar bilan haqiqiy aloqani talab qiladi.

Bunga erishishning eng yaxshi yo'li, ta'tilga yoki til kurslariga chet elga borish, chet ellik do'stlar orttirish yoki xorijlik o'qituvchidan ingliz tilini o'rganish orqali erishiladi. Ushbu yondashuv individual talaba yoki kichik guruhlar uchun qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu usulda talaba doimo erkin gapirish imkoniyatiga ega bo'ladi.[2]

O'quvchilarga chet tlini o'rgatishda aqliy tarbiyadan foydalanish bilan birga o'zga madaniyatning ta'limiy boyliklari va qadriyatlarini bilan tanishgan holda olib

borish maqsadga muvofiqdir. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida va chet tilini o'rgatishda o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Koreys tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda koreys tili o'qituvchilari Koreya va Amerika Qo'shma Shtatlari pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda.

1. **“Muammoli vaziyat yechimi”** (Creative Problem Solving) metodi. Bu metodni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi.
2. **“Quvnoq topishmoqlar”** (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish koreys tilini va ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notnish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.
3. **“Tezkor javob”** (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. Bu metodda o'qituvchi o'tilgan dars yuzasidan savol beradi va o'quvchilarga unga tez va aniq javob berishadi.
4. **“Chigil yozdi”** (“Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish orqali dars qiziqarli va samarali bo'ladi.
5. **“Pantomima”** (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.
6. **“Hikoya zanjiri”** (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda va mustaqil fikrlay olishiga yordam beradi.
7. **“Rolli o'yinlar”** (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun darsda turli xil kasb egalari rasmlarini keltirib yoki kasbga doir video materiallarini qo'yib o'quvchi va talabalarni kasb hunarga qiziqtirish mumkin. Yoki darsda o'quvchi va talabalar turli kasb egalarini rolini o'ynashlari ham mumkin.
8. **“Allomalar yig'ini”** (Thinkers meeting) koreys va o'zbek adabiyot namoyondalarini, shoirlar va yozuvchilarni hikmatli so'zlaridan foydalanish

mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli soʻzlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson boʻlib tarbiyalanishiga yordam beradi.

9. **“Rasmlar soʻzlaganda”** (When pictures speak) usuli ancha qulay boʻlib, koreys tilini oʻrgatishda, talaba, oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi va bunda mavzuga oid rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

10. **“Savol-javob kartochkalari”** (quiz cards) oʻquvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa hamma oʻquvchi va talabalarni darsda faol qatnashishiga yordam beradi. Koʻrib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya oʻziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi hamkorlik, oʻquvchining taʼlim jarayonidagi faol harakati koʻzda tutiladi.[3]

Oʻqituvchi koreys tili oʻrgatishda koreys milliy madaniyati bilan birgalikda dars oʻtsa talaba va oʻquvchilar koreys tilini tez va oson oʻrgana oladi. Chunki oʻqituvchi biror bir gramatik qoidani tushuntirsa uni turli xil mashqlar va oʻyinlar yordamida mustahkamlashga harakat qiladi. Shu paytda koreys madaniyatiga doir gap yoki matnlardan foydalansa talaba va oʻquvchilar ham qoida oʻrganib, ham koreys madaniyatidan xabardor boʻladi. Masalan, oʻqituvchi darsda feʼl soʻz turkumini tushuntirmoqda. Doskaga turli xil ish-harakatga doir feʼl soʻz turkumini yozadi va unga doir gaplar tuzadi.

사용하다 [sayoʻnghada] foydalanmoq, ishlatmoq

Shu feʼllardan foydalangan holda koreys madaniyatiga doir gaplar tuzishi mumkin.

예: 한국 사람들은 포크 대신에 젓가락을 사용합니다.

[Hanguk saramdirn poʻki teshine chokkaragil sayoʻnghamnida]

Koreyslar sanchiqi oʻrniga tayoqchalardan foydalanadi.

Ushbu gapda koreyslar sanchiqi oʻrniga tayoqchalardan foydalanishini bilish mumkin. Bunda talaba va oʻquvchi koreyslarning ovqatlanish madaniyatidan habardor boʻlish bilan birga feʼl soʻz turkumini qayday qoʻllashni oʻrganadi.

예: 한국 사람들은 국이랑 밥을 먹습니다.

[Hanguk saramdirn kukirang papbl moksmnida] Koreyslar odatda sho‘rva bilan guruch (밥) tanovvul qilishadi.

Ushbu gapda ham koreys xalqi odatda guruchni doim iste‘mol qilishini bilib olishimiz mumkin. Shu yerda solishtirish metodidan foydalanish mumkin, ya’ni “O‘zbeklar odatda sho‘rva bilan nima iste‘mol qilishadi?” “albatta non iste‘mol qilishadi”. Koreyslar non o‘rniga qaynatilgan guruch tanovvul qilishadi”-deb solishtirish mumkin.

예: 한국 사람들은 한복을 입습니다. [Hanguk saramdirn hanbo‘gl ibsmnida.]

Koreyslar hanbo‘k kiyishadi.

Ushbu gapda ham koreyslarni Hanbo‘k milliy kiyimini kiyishini bilib olishimiz mumkin. O‘qituvchi shu holatda Hanbo‘k haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tsa, ya’ni “Hanbo‘k koreyslarning milliy kiyimi bo‘lib, huddi o‘zbeklarning milliy libosi atlas singari uni ham milliy bayramlarda va turli xil marosimlarda kiyishadi.”-deb ma’lumot berib o‘tsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Koreys madaniyatini o‘rganishda xalq og‘zaki ijodi orqali o‘rgatish yaxshi samara beradi. Jumladan, turli xil koreys milliy ertaklari, maqollari va qo‘shiqlari orqali madaniyatni o‘rgatish shular jumlasidandir. Koreys xalq ertaklari ko‘plab bo‘lib, ular insonlarni ezgulikka va yaxshilik qilishga undaydi. Bunday ertaklardan 흥부와 놀부 [Hingbu va No‘lbu], 콩쥐와 팥쥐 [Ko‘ngji va Patji], 금도끼와 은도끼 [Kmtokki va Intokki] kabi koreys milliy madaniyatini aks ettiruvchi ertak namunalari mavjud. Koreys xalqi bola tug‘ulmasidan ona qornida rivojlanayotgan paytidan boshlab kitob o‘qib berishni boshlaydi. Bu esa bolani kitob o‘qishga bol‘gan muhabbatini kuchaytiradi va bolani fikrlash doirasini kengayishiga katta turtki bo‘ladi. Nafaqat uyda balki, bog‘cha va maktablarda ham bolani kitob mutolaa qilishga o‘rgatadilar. Shu orqali bola o‘z madaniyati va tarixidan xabardor bo‘lib boradi. Biz ham chet tili fani o‘qituvchilari o‘quvchi va talabalarni kitobni ko‘proq mutolaa qilishga qiziqtirishimiz lozimdir. Shunday qilsak yoshlar bizning tariximiz va madaniyatimiz haqida chuqurroq bilimga ega bo‘ladilar. O‘qituvchi koreys

madaniyati darsini o'tishda avvalo sinfda madaniyat muhitini yaratishi lozimdir. Unda turli xil milliy libos, ko'rgazmali qurollar va multimedia namunalaridan foydalangan holda o'tsa dars sifatli bo'ladi.

Masalan, "Koreys milliy liboslari" mavzusini o'tishda ko'rgazmali qurollar tayyorlab koreys milliy liboslari ko'rsatiladi va uni qanday matolardan tayyorlanishini aytib o'tiladi. Hanbo'k ipak (Silk) matosidan tayyorlanadi. O'zbek milliy libosimiz "Atlas qanday matodan tayyorlanadi?" u ham ipakdan tayyorlanadi, demak ikkala davlat milliy liboslari ipak matosidan tayyorlanar ekan, koreys milliy kiyimi Hanbo'kni ayollar uchun yubkali va erkaklar uchun shimli ko'rinishda bo'ladi. Lekin o'zbek milliy libosi atlas odatda ayollar uchun mo'ljallangan bo'ladi, erkaklar esa chopon kiyishadi bu esa kiyinishdagi farqni ko'rishimiz mumkin. Shu tariqa dars jarayonini tashkillab darsda turli xil savol-javob tarzida o'tkazish mumkin. Bunda biz "**Tezkor savol-javob**" metodini qo'llagan bo'lamiz. Dars jarayonida koreys milliy liboslarini rangli qog'ozdan tayyorlab yopishtirish yoki rasmni chizish orqali mustahkamlash mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, xorijiy tilni o'rgatishda har bir o'qituvchi interfaol metodlarni o'z darsida to'g'ri va o'rinli qo'llashni bilishi lozim. Zero, o'quvchi xorijiy tilni grammatik, leksik, fonologik bilish bilan birga uni real hayotda gapirish yoki eshitish orqali qo'llay olishi darkor. O'quvchilarda bunday ko'nikmalarni shakllantirish uchun chet tili fani o'qituvchilari darslarda innovatsion texnologiyalarni qo'llab, zamon talabiga mos bo'lgan interfaol metodlar orqali darslarini tashkil etishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga xorijiy tilni o'rgatishda o'qituvchi shu til madaniyatini ham birga o'rgatishi maqsadga muvofiqdir. Buyuk amerikalik olimlar Politzer va Brusik fikricha, "Til va madaniyat bir xil tushunchalardir"-deb ta'riflanadi. Xorijiy til madaniyatini o'qitish o'quvchilarga o'sha mamlakat odamlarining turmush tarzi, milliy qadriyatlari va an'analardan xabardor bo'lish bilan birga til ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Mazkur tillar o'zbek madaniyati bilan solishtirib, qiyoslab o'rgatilsa o'quvchi tez va oson tushuna oladi. Chunki har bir o'quvchi o'z madaniyatini yaxshi bilgani bois chet madaniyatni solishtirish unga tushunish uchun oson bo'ladi.

Shunday usul va metodlarni qo‘llab dars mashg‘ulotlarini tashkillansa, o‘quvchilar til o‘rganishida muvaffaqiyatga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent 2016.
2. TOP 10 new modern methods of teaching English
<https://www.novakidschool.com/blog/how-to-teach-your-child-english-modern-methods-and-techniques/>
3. Ro‘ziyeva D.Usmonboyeva M, Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. - T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. - 115 b.
4. O‘QUVCHILARGA INGLIZ VA KOREYS TILLARINI O‘QITISH METODIKALARINING QIYOSIY TAHLILI. 3(6), June, 2023. Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi,Ergasheva Yulduzxon G‘ayratovna
5. XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI. 2022 (Ibrohimova Marhabo Ulug‘bek qizi)
6. Ingliz tili o‘qitishning kommunikativ metodikasiga kirish – Oksford universiteti matbuoti, 1997 yil.
7. Bim I.L. Chet tillarini o‘qitish metodikasi masalasi to‘g‘risida. // IYaSh 1974, - N2 – S, 19 – 32.
8. Richard J.C, Rogers T.S. Approaches and Methods in language Teaching/Cambridge university press, - 2010. 3. Djalolov J. B. “HHRnu3 Tunu yK;uTum MeToguKacu” TomKeHT, 2010.
9. Brougter G. Teaching English as a foreign language. 1996.
10. Hyun-Hwa Kang and M i-Hye Lee (2020), Introduction to Korean Language Education, Korea National Open University Publishing Center.
11. Choi Yun-gon (2020), Korean Grammar Education, History o f Korean Culture.
12. Lee Joo-Haeng, Segmentation Learning Theory of Korean (as a Foreign Language), Bogosa, 2017.

13. Raximovna, S. A. (2022). Development of Gender Culture. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 16, 88-92

